

IJTIMOIIY ISHNING NAZARIY BILIMLARINI AMALIYOTDA QO'LLANILISHI

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy ish kasbining nazariy va amaliy jihatlari, yoritilib berilgan. Ijtimoiy ish bu odamlar va ijtimoiy guruhlarni qo'llab-quvvatlash, himoya qilish, tuzatish va ijtimoiy reabilitatsiya qilish orqali shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berishga qaratilgan professional faoliyatni qamrab oladi. Ijtimoiy ish kasbiy faoliyati yolg'iz keksalarga, nogironligi bo'lgan shaxslarga, shuningdek qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolalarga, ayollarga, uysizlarga, deviant xulq-atvor egalari va ruhiy kasallarga, yordamni ham o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy ish kasbi ijtimoiy o'zgarishlarni, insonlar o'rtasidagi munosabatlaridagi muammolarni hal qilishga va farovonligini oshirish uchun insonlarning, imkoniyatlarini kengaytirish va ozod qilishga yordam beradi. Insonlarning xulq-atvor va ijtimoiy tizimlar nazariyalaridan foydalangan holda, ijtimoiy ish odamlar o'zlarining atrofida bilan, o'zaro aloqada bo'lgan joylarda aralashadi. Inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillari, ijtimoiy ish uchun asos hisoblanadi.

Kalit so'zlar: nazariya, amaliyot, ijtimoiylashuv, mijoz, qiyin hayotiy vaziyat, baholash, ijtimoiy ishning obekti, subekti.

Kirish. "Ijtimoiy ish-jamiyatdagi, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydigan zaruriy kasbiy faoliyatdir". Bugungi kungacha, yurtimizda deyarli barcha jabhalardan o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar ilm-fan sohasini ham qamrab olmoqda. Yurtimizga yangi va zamonaviy kasblar kirib kelmoqda. Ijtimoiy ish kasbiy faoliyati ham shunday. Lekin tarixga nazar tashlar ekanmiz, turli islohotlarda yoki xalqimizning bir-biriga turli qiyin hayotiy vaziyatlarda, ko'mak berishlarida bu kasbiy faoliyat biz uchun yangilik emasligini tushunamiz. Ijtimoiy ishning tarixi, XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to'g'ri keladi. {1} Bu soha 2004-2005 yillarda rasmiy tarzda yurtimizga kirib keldi. Ya'ni Toshkent davlat Madaniyat institutida ilk bor "Ijtimoiy ish" yo'nalishi, tashkil etildi. 2005-2006 yillarda Samarqand va Farg'ona oliy maktablarida ham bu yo'nalish tasis etildi. Dunyo bo'yicha esa ijtimoiy ish kasbiy faoliyat 1903 yildan boshlab o'qitila boshlandi. Asoschilari, M. Richmond (1861-1928) Alisa Salomon, J. Adams, kabilar hisoblanadilar. Aynan Meri Elen Richmondning bu soha bo'yicha yozgan, "Ilmiy ijtimoiy ish" "Ijtimoiy diyagnostika", kitoblari juda mashhur. Ijtimoiy ish mutaxassisi turli xizmatlarni taqdim etishda, u alohida mijozlar uchun maslahat berishdan to'g'ri terapevtik xizmat ko'rsatish, oila, guruh, tashkilot va jiddiy ijtimoiy yig'inlarda ishtirok etish va tashkillashtirish vazifalarini amalga oshirish bilan tugaydi. {2}

Ijtimoiy ishning amaliy faoliyati, juda keng maydonni egalaganiki ular turli tashkilotlar maktab, psixologik maslahat, uyda tajovuzga duchkelgan insonlar, uy-joy masalalari bo'limi, qamoqxona, bolalar joylashtiriladigan muassasalar bilan o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi. Bunday turli-tumanlikni tushunib olish uchun bazi vaziyatlarni ko'rib chiqish lozim. Buning tarkibiga ijtimoiy ish, uning tarixi, maqsad va vazifasi kiradi. Shuningdek, to'g'ri va umumiy amaliyotdagi faoliyat orasidagi tafovutni aniqlash va tushunish lozim. Ijtimoiy ish kasbining asosiy maqsadi, insonlarni ijtimoiy muhitida ishonchli, xavfsiz, qadir-qimmatli va o'z huquqlarini to'liq amalga oshirish uchun ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishni qamrab oladi. {3}

2001-yil 27-iyunda Kopengagenda "Ijtimoiy ish maktablari" xalqaro assotsiatsiyasi va "Xalqaro ijtimoiy ishchilar federatsiyasi" tomonidan qabul qilingan ijtimoiy ish ta'rifidan kelib chiqqan holda, ijtimoiy ishchilarning kasbiy faoliyat jamiyatdagi o'zgarishlarga, muammolarni hal qilishga, insoniy munosabatlarga hissa qo'shadi. {4} Jamiyatda funksional mavjudlik qobiliyatini mustahkamlashga va odamlarning farovonlik darajasini oshirish maqsadida ularni qutqarishga yordam beradi. Ijtimoiy ish bu odamlar va ijtimoiy guruhlarga qo'llab-quvvatlash, himoya qilish, tuzatish va ijtimoiy rehabilitatsiya qilish orqali shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berishga qaratilgan professional faoliyat. {2} U yolg'iz nafaqaxo'rlar va nogironlarga yordamni ham, shuningdek, qiynalgan bolali oilalar, uysizlar, giyohvandlar, aroqxo'rlar va ruhiy kasallarga yordamni ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy ish fan sifatida ijtimoiy faoliyatning buzilishi holatlarida shaxs, oila yoki jamiyatning ichki va tashqi resurslaridan foydalanish jarayonini boshqarish qonuniyatlari haqidagi ilmiy bilimlar sohasi sifatida tushunilishi mumkin (B. V. Kupriyanov). Ijtimoiy ishning boshqa fanlar bilan o'zaro ta'sirini aniqlash uning keng hajmlilik xususiyatini, shuningdek, sotsiologiya, psixologiya va boshqalar kabi tegishli bilim sohalaridan farqini ko'rsatdi. Ijtimoiy ish — kasbiy faoliyat sifatida, yordamga muhtojlarga (og'ir yashash sharoitida bo'lganlarga), o'z hayotiy muammolarini tashqi yordamsiz hal qila olmaydigan va ko'p hollarda hatto, yashay olmaydigan odamlarga yordam berishga qaratilgan (Pavlenok P. D.). {5}

Har qanday faoliyat, shu jumladan ijtimoiy ish ham o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib, unda har bir element uzviy bog'langan va boshqalar bilan o'zaro ta'sirlashadi, o'z vazifalarini bajaradi. Ijtimoiy ish ajralmas tuzilma bo'lib, quyidagi elementlardan iborat: subyektlar; funksiyalar orqali ochiladigan tarkib; vositalar (tashkiliy-texnik, moliyaviy va boshqalar), nazorat va maqsadlar. Ijtimoiy ishning kasbiy faoliyat sifatidagi maqsadi, bir tomondan, mijozning manfaatlarini qondirish bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatda barqarorlikni saqlashdir. Ushbu muammoning eng maqbul yechimi bu ikki maqsad o'rtasida murosaga erishishdir. {3}

"Ijtimoiy ish-bu amaliyotga asoslangan kasb va akademik intizom bo'lib, u ijtimoiy o'zgarish va rivojlanishga, ijtimoiy birlashuvga, odamlarning imkoniyatlari va ozod bo'lishiga yordam beradi. Ijtimoiy ishda ijtimoiy adolat, inson huquqlari, jamoaviy mas'uliyat va xilma-xillikka hurmat tamoyillari asosiy o'rinni egallaydi. Ijtimoiy ish, ijtimoiy fanlar, gumanitar fanlar va mahalliy bilimlar nazariyasiga asoslanib, ijtimoiy ish odamlar va tuzilmalarni hayotiy muammolarni hal qilish va farovonlikni yaxshilashga jalb qiladi. "Ijtimoiy nazariya ijtimoiy dunyoni tasvirlash, tushuntirish va tahlil qilish uchun mavhum va ko'pincha murakkab nazariy tizimlardan foydalanishni bildiradi. Yaxshi ijtimoiy nazariya, aks holda yashiringan narsalarni ochib beradi. {3} Shuningdek, u kelajakdagi harakatlar, harakatlar yoki vaziyatlar haqida bashorat qiladi. Umuman olganda, ijtimoiy nazariyaning jozibadorligi shundaki, u diqqatni shaxsdan uzoqlashtiradi (ko'pchilik odamlar dunyoga shunday qaraydi) va uni jamiyatning o'ziga va bizning hayotimizga ta'sir qiladigan ijtimoiy kuchlarga qaratadi. Bu sotsiologik tushuncha (ko'pincha "sotsiologik tasavvur" deb ataladi), ijtimoiy tuzilmalar va naqshlar tasodifiydir, deb taxmin qilishdan tashqariga chiqadi va inson borligi haqida ko'proq tushuncha va ma'no berishga harakat qiladi. Bu urinishda muvaffaqiyat qozonish uchun, ijtimoiy nazariyotchilar vaqti-vaqti bilan turli fanlar metodologiyasi va tushunchalarini o'z ichiga oladi. {6} Ijtimoiy ish obekti bu-odamlar hayotining o'ziga xos sohalari, doimiy yordamga muhtoj bo'lganlar, qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan shaxslar va guruhlar hisoblanadi. Qilingan ilmiy ishlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy ish obektlarini quydagicha ta'sniflash mumkin. Salomatlik holati, hayot muammolarini o'zi hal qila ololmaganlar. {4} Ekstrimal ijtimoiy sharoitlarda xizmat qiladiganlar. Har xil turdagi deviant xulq-atvor egalari. Keksa odamlar, pensionerlar. Turli tipdagi oilalarning og'ir noqulay ahvoli (ziddiyatli oilalar, ko'p bolaliy oilalar) Bolalarning alohida holati, uy-joyi yo'qlar, siyosiy dipressiyaga uchraganlarning xulqiy va huquqiy holati. Ijtimoiy ish subekti bu ijtimoiy ishlarni olib, boruvchi va boshqaruvchi insonlar va tashkilotlar. Tashkilot, muassasa, ijtimoiy institutlar faoliyati. {1} Jamoat xayriya tashkilotlar. Universitetlar, ijtimoiy ish bo'yicha ilmiy xodimlar. Ijtimoiy ish bilan professional shug'ilanuvchilarni tashkil etadi. Inson hayoti davomida, ijtimoiy tarzda rivojlanib ijtimoiylashib boradi. Ijtimoiylashuv bu ommaviy, inson shaxsi tomonidan jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishga imkon beradigan ma'lum bir bilim, o'zini tutish, me'yori va qoidalarni o'zlashtirish jarayoni. Lekin ayrim insonlar, ijtimoiylashuv jarayonida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu holat bolalarda kuchli kuzatiladi. Ijtimoiy ish mutaxassisining asosiy vazifasi, ijtimoiy psixologik, ijtimoiy pedogagik, ijtimoiy iqtisodiy va boshqa metodlar va nazariyalar yordamida, me'yoriy faoliyatiga xalaqit beruvchi muammolarni aniqlashda mijozga yordam beradi. Ularning yoshi, ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar ular bilan tizimli ishlaydi. Ijtimoiy ish nazariyalari ko'p hollarda psixologiya bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy ish

nazariyalarining ayrimlarini keltirib o'tamiz. Xulq-atvor nazariyasi, kongetiv nazariyasi, ekologik tizim nazariyasi, oilaviy hayot nazariyasi, psixodinamik nazariya, yuqorida keltirilgan nazariyalarning mohiyati mijozni hayot farovonligiga erishishda, o'z imkoniyatlarini his qila olishga yordam beradi. Ijtimoiy ish xodim uchun mijoz bilan ishlashdagi, eng qiyin holat bu individual ishlash jarayoni sanaladi. Bu guruh bilan ishlashdan qiyin kechadi. Kasb taqazosi bilan, ijtimoiy ish xodimi bir qator ro'llarni bajaradi.

Misol uchun maslahatchi, tarbiyachi, tadqiqotchi, ish boshqaruvchi, mediator, advokatlikni ham bajarishi mumkin bo'ladi. Ijtimoiy ish mutaxassisi o'zining bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini alohida odamlar, guruhlar, jamoa va jamiyatlarni taraqqiy etish uchun, shaxsiy ijtimoiy nizolarni hal qilish, ularning oqibatlarini bartaraf etish uchun sarf qilish lozim. Xodim o'z ustida ishlashi, bilimlari va mahoratini mutassil oshirib borishga harakat qilib, ta'lim va tadqiqot ishlarini olib borishi kerak. Xulosa: Ijtimoiy ish kasbiy faoliyat, har tomonlama mufassal hisoblanadi. Insonlar bilan ishlash jarayonida, insoniy munosabatlarni yanada yangi ko'rinishlarini kashft etadi. Aytib o'tilganidek mijozning holati, yoshi, muammolari, o'zini tutishi turlicha bo'ladi. Eng e'tiborga loyiq jihati shundaki, mutaxassisida "kasbi kuyish" yuz berishi mumkin. Shunday vaziyatlardan xodim o'zini har tomonlama mijozining muammolaridan himoya qilish kerak.

Xodim o'zini har qanday vaziyatda, qo'lga olishi lozim bo'ladi. Ijtimoiy ish kasbi insonlarning tinchligini ta'minlash maqsadida jamiyatdagi o'zgarishlarga, insoniy munosabatlar, ularning ozodligi va imkoniyatlarini kengaytirishga imkon yaratadi. Soha vakillari har bir inson va ijtimoiy guruh huquqlari, ularning mustaqilligi va sha'nini hurmat qilar ekan, BMTning inson huquqlari xaritasidan va boshqa xalqaro hujjatlariga asoslanadi. Ijtimoiy ish kasbi faoliyati qanday asos va nazariyalarga, ega ekanligini ommalashtirish, uning ilmiy asoslarini yaratish, bu faoliyatni istiqbollari belgilab beradi. Muxtasar qilib shuni ayta olaman, soha bo'yicha ilm qilinishi insonlar hayotini yengillashtirishi, yangi va kerakli ish o'rinlarini yaratish uchun asos vazifasini bajarishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "История социальной работы в России". В. П. Мельников. Е. И. Холостова. 2005.
2. "Социальная политика". И. Холостовой. Г. И. Климантовой. 2017.
3. "Ijtimoiy siyosat" A. V. Vaxabov. Toshkent 2019.
4. "Ijtimoiy ish texnologiyalari". Qo'llanma 2001.
5. "Social Policy an Introduction -Forth edition. Ken. Blakemors Louis Warwick -Booth Open University Press / UK 2013.
6. "Ijtimoiy ish nazariyalari". Qo'llanma 2018.

Foydalanilgan Internet saytlari:

1. <http://www.imf.Org>
2. <http://www.cbu.uz>
3. <http://www.undp.uz>